
«Muqaddasdir Vatan bayrog'i!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi

Farg'ona shahridagi «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyida O'zbekiston Respublikasi bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tantanali tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi va shahar bo'linmasi vakillari, ta'lim muassasasining o'qituvchi va o'quvchilari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'lim boshlig'i Maqsudjon Sulaymonov ochib, bayrog'imizning 31 yilligi bilan yig'ilganlarni tabrikladi hamda o'quvchilarga bayroq to'g'risida tushunchalar va ma'lumotlar berdi.

Tadbir davomida 1-bosqich o'quvchilaridan tashkil topgan "Tashabbuskor" va 2-bosqich o'quvchilaridan tashkil topgan "Temurbeklar" jamoalari o'rtasida intellektual bellashuv o'tkazildi. Jamoalar 1-shartda bayroq haqida ma'lumotlar va she'rlar aytili. 2-shartda "Zakovat" intellektual o'yini tashkillandi. 3-shartda guruhlar O'zbekiston Respublikasi bayrog'i rasmini chizib, ta'riflab berishdi.

Farg'ona shahar madaniyat bo'limining Abdulla Qodiriy markazi san'atkorlari va iqtidorli o'quvchilari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchaga manzur bo'ldi. Tadbir so'ngida bellashuvda g'olib bo'lgan jamoa va faol ishtirokchilarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-17 10:07:13